

### SO'NGI YILLARDA PATENTLANGAN IXTIROLAR

**Jaylyashova Dilbar Odil qizi**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti magistranti.

+998940564232, [djaylyashova@gmail.com](mailto:djaylyashova@gmail.com)

**Urunova Sohiba Alisher qizi**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti magistranti

+998903722603, [sokhibanurimbetova@gmail.com](mailto:sokhibanurimbetova@gmail.com)

**Sayfullayeva Zaynab Sunnat qizi**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti katta o'qituvchisi, PhD.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17842845>

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada innovatsiyalar va ixtirolarning texnik taraqqiyotdagi o'rni hamda ixtiro tushunchasining asosiy mezonlari ilmiy jihatdan yoritiladi. O'zbekistonning amaldagi patent qonunchiligi, ixtirolarni ekspertizadan o'tkazish tartibi va so'nggi patent ma'lumotlari tahlil qilinadi. Shuningdek, patentlangan va rad etilgan talabnomalarning ochiq e'lon qilinishi yangi ixtirochilar faoliyatini qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** patent, ixtiro, qonun, mualliflik guvohnomasi, usul, texnik yechim, ekspertiza, O'zbekiston patent tizimi, USPTO, ixtirochilik faoliyati.

### ИЗОБРЕТЕНИЯ, ЗАПАТЕНТОВАННЫЕ В ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ

**Аннотация.** В данной научной статье рассматривается роль инноваций и изобретений в техническом развитии, а также научно анализируются основные критерии понятия «изобретение». Анализируются действующее патентное законодательство Узбекистана, порядок проведения экспертизы изобретений и новейшие патентные данные. Кроме того, обосновывается значимость открытого опубликования как выданных патентов, так и отклонённых заявок для поддержки деятельности новых изобретателей.

**Ключевые слова:** патент, изобретение, закон, авторское свидетельство, метод, техническое решение, экспертиза, патентная система Узбекистана, USPTO, изобретательская деятельность.

### PATENTED INVENTIONS IN RECENT YEARS

**Annotation.** This scientific article examines the role of innovations and inventions in technological development and scientifically analyzes the fundamental criteria of the concept of invention. The current patent legislation of Uzbekistan, the procedure for conducting examination of inventions, and recent patent data are reviewed. In addition, the importance of publicly disclosing both granted patents and rejected applications in supporting the activities of new inventors is substantiated.

**Keywords:** patent, invention, legislation, authorship certificate, method, technical solution, examination, Uzbekistan patent system, USPTO, inventive activity.

Insoniyat bugungi holatga erishish uchun qadim zamonlardan beri innovatsiyalarni yaratgan. Insoniyatning ixtirolari va texnologiyalari sivilizatsiyalarni shakllantirdi va yerdagi hayotni o'zgartirdi. Istaklar va imkoniyatlar rivojlangan sari, har bir avlod o'z innovatorlarini yetishtirdi. Har qanday yangilik ham ixtiro bo'lavermaydi.

Masalan, quruq ilmiy qoidalar, xususan, kashfiyotlar, amalga oshirib bo‘lmaydigan va xato takliflar ixtiro hisoblanmaydi. Hal qilinadigan masala faqat nazariy emas, balki amaliy ehtiyojlarni qondiradigan bo‘lishi lozim.

Ixtiro qonun bilan muhofazalangan davlatlarda har bir taklifning ixtiro bo‘lish shartlari belgilanadi. Bu shartlardan asosiysi masalaning eng yangi hisoblangan texnik yechimidir.

Muayyan taklifni ixtiro deb hisoblash uchun undan bir necha marta foydalanish imkoni ham bo‘lishi kerak. Ixtironing yangiligi, ya’ni birinchi ekanligi, oldin berilgan mualliflik guvohnomalari va patentlar, ixtirolar e’lon qilinadigan tegishli adabiyotlar, ko‘rgazmalarda namoyish qilingan eksponatlar va boshqaga muvofiq, aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ixtirochi bo‘la olish shartlari va uni tasniflash tartibi “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi 29.08.2002 397-II-son O‘zbekiston Respublikasi Qonuni da belgilangan. Ixtiro bo‘yicha talabnomalarni ekspertiza qilish, mualliflik guvohnomasi va patent berish ishlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Intellektual mulk elektron davlat xizmatlari portalining ma’lumotlariga ko‘ra respublikamizda eng so‘ngi patentlangan ixtirolar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

| No | Ixtiro nomi                                                                       | Huquq egasi(lar)                                                                                                 | Ro'yxatdan o'tgan sana |
|----|-----------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------|
| 1. | Me'danning laparoskopik bo'ylama rezeksiyasi usuli                                | RUZIYEV UMID SANAKULOVICH                                                                                        | 12.12.2024             |
| 2. | Namlik datchiklarini kalibrlash uchun qurilma                                     | "FARG'ONA POLITEXNIKA INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI                                                               | 06.12.2024             |
| 3. | Antipiren-antiseptik olish usuli                                                  | "TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI, UZ                                                               | 20.12.2024             |
| 4. | Ikki tomonlama chov churrasida laparoskopik gernioplastika qilish usuli           | XALIKOV SARVAR PO'LATOVICH;<br>XUSINOV DILSHODBEK OTABOYEVICH                                                    | 18.12.2024             |
| 5. | Seysmik ta'sirlardan qum-gilli gruntlarni mustahkamlash uchun sement aralashmasi  | ZAFAROV OLMOS XXX                                                                                                | 17.12.2024             |
| 6. | Beton qorishmasi                                                                  | ZAFAROV OLMOS XXX                                                                                                | 16.12.2024             |
| 7. | Kontaktsiz sinxron elektr mashinasi                                               | "ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI                                  | 13.12.2024             |
| 8. | Vertikal shpindelli paxta terish apparatining shpindellar yuritmasining mexanizmi | “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI M.T.O‘ROZBOEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI | 12.12.2024             |

|     |                                                                                                                  |                                                                            |            |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|------------|
|     |                                                                                                                  | INSTITUTI " DAVLAT<br>MUASSASASI, UZ                                       |            |
| 9.  | Transfassial tireoidektomiya<br>usuli                                                                            | "AKADEMIK Y.X.TO`RAQULOV<br>NOMI, UZ; RASHITOV MURODJON<br>MUXAMEDJANOVICH | 12.12.2024 |
| 10. | Semizligi bor gastroezofageal<br>reflyuks bilan kasallangan<br>bemorlarda t-sleeve oshqozon<br>rezeksiyasi usuli | MUXAMEDKARIMOV ALISHER<br>KABILJONOVICH                                    | 12.12.2024 |

Bundan tashqari USPTO (AQSH patentlar va savdo belgilari bosh idorasi) rasmiy saytining ma'lumotlariga ko'ra so'ngi yillarda patentlangan ixtirolar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

| №  | Ixtiro nomi                                                                                                                                                                                     | Huquq egasi(lar)                                                                                                                                          | Ro'yxatdan<br>o'tgan sana |
|----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------|
| 1  | Furrow visualization (Jo'yakni vizualizatsiya qilish)                                                                                                                                           | Houstin L. Lichtenwalner, Jr., Emmaus, PA (US); Bran Ferren, Los Angeles, CA (US); Don Lariviere, Glendale, CA (US); and Cary S. Hubner, Geneseo, IL (US) | 21.03.2024                |
| 2. | Plant propagation medium and methods of making and using it (O'simliklarni ko'paytirish vositasi va uni tayyorlash va ishlatish usullari)                                                       | Joel Douglas, Bonita Springs, FL (US); Shem Lachhman, West Harrison, NY (US); and Michael Curtis, Columbia, CT (US)                                       | 17.04.2025                |
| 3. | Automatically generating turns on an agricultural work machine based upon field geometry (Dala geometriyasiga asoslangan qishloq xo'jaligi ish mashinasini avtomatik ravishda ishlab chiqarish) | Michael A. Torzewski, Wauke, IA (US); Noel R. Menard, Kyle, TX (US); and Simon W. Schaefer, Ankeny, IA (US)                                               | 16.01.2025                |
| 4. | System and method for reducing shank wear on an agricultural implement (Qishloq xo'jaligi moslamasida dastani eskirishini kamaytirish tizimi va usuli)                                          | Brittany Schroeder, Bunker Hill, IN (US)                                                                                                                  | 16.01.2025                |
| 5. | Sensing and control of liquid application using an agricultural machine (Qishloq xo'jaligi mashinasi yordamida suyuqlik                                                                         | Grant J. Wonderlich, Milan, IL (US); Kenneth E. Herrmann, Port Byron, IL (US); Michael C. Steele, Orion, IL (US); Kilian Wolff, Kaiserslautern            | 08.08.2024                |

|    |                                                                                                                        |                                                                                                                                                 |            |
|----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
|    | qo'llanilishini sezish va boshqarish)                                                                                  | (DE); and Gerrit Pruessmann, Recklinghausen (DE)                                                                                                |            |
| 6. | Automated precision pollen applicator for row crops (Qatorli ekinlar uchun avtomatlashtirilgan nozik Polen aplikatori) | Martin Arbelbide, Eau Claire, WI (US); Brice Floyd, West Des Moines, IA (US); Jeremy K Johnson, Roland, IA (US); Nitin Kandpal, Hyderabad (IN); | 19.09.2024 |

Suv, elektr energiyasi tanqisligi, barcha kasalliklar va atrofimizni o'rab turgan jamiki olam aynan ixtirolarga bog'liq. Yuqorida takidlanganidek har qanday yangilik ham ixtiro bo'lavermaydi. Ixtiro, tor ma'noda davlat tomonidan tan olinadigan va tegishli qonun bilan muhofaza qilinadigan yangi texnikaviy yechimdir. Shunday ekan, keltirilgan rasmiy saytlarda faqat patetnlangan ixtirolar emas, talabnomasi rad etilgan ixtirolar ro'yxati va rad etish sababi ham keltirilsa yangi ixtirochilar uchun o'z ustida ishlash imkoniyati yanada ortgan bo'lar edi.

**Foydanilgan adabiyotlar:**

1. "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni,2002 397-II-son.
2. Abdullaev X., "Intellectual mulk huquqi", – Toshkent: TDYuI nashriyoti, 2020.
3. Qodirov A.R., "Ixtirolar patentlash va litsenziyalash asoslari", – Toshkent: Fan, 2019.
4. Karimov B., "Innovatsion texnologiyalar va ularni patentlash tartibi", – "Iqtisodiyot va innovatsiyalar" jurnali, №4, 2021.
5. Ro'zmetov N., "Intellectual mulk ob'ektlari va ularni himoya qilish mexanizmlari", – Toshkent: Adolat, 2022.
6. Boykov V.P., "Patentovedenie i lisenzirovanie", – Moskva: Yurayt, 2018.